MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY IJODIGA IJTIMOIY-IQTISODIY NAZAR

Mamayusupova Shahina Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shahinamamayusupova28@gmail.com

Annotatsiya: *Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ijodiga ijtimoiy iqtisodiy nazarlar keltirilgan. Shuningdek ushbu adibning hayot yo‘llari va hajviy satiralariga umumiy ta’rif berilgan. Shu jumladan aholi turmush tarsi va soliq siyosati tasvirlangan. Muqimiy hayoti qiyinchiliklarga boy bo‘lishiga qaramay, o‘z ijodini also tark etmagan aksincha kelajakka intilish ruhi ostida shakillangan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich, ma’lumot, iqtisodiy, ijtimoiy,ma’naviy, qiyinchlik, kiridikorlik,odmi, qashshoqlik, satira.*

Bolalikdan adabiyotga qiziqishi yuqori bo‘lgan va to‘la hajviyot va adolatga suyangan Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy odmi hayot kechirgan adabiyotshunoslardandir. Muqimiy boshlang‘ich ma’lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxo‘jada she’riyatga havas uyg‘otgan. Muqimiy Qo‘qondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida 1864-1875 yillar mobaynida, so‘ng Buxoro madrasalaridan birida 1875-1876 yillarda ta’lim olgan. 1876-yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qo‘qonga qaytgan va ijod bilan shug‘ullangan. Otasi vafotidan so‘ng moddiy ahvoli og‘irlashgach, «Hazrat» madrasasining kichik bir hujrasiga ko‘chib o‘tgan , butun umri qashshoklikda kechgan[1]. Umri davomida bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan, Shoshdagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqur o‘rgangan mutafakkir hisoblanadi. Ijodiy yo‘nalishda Almaiy, Nodim kabi ilg‘or ruhdagi ijodkorlar bilan aloqa bog‘lab, ijodiy hamkorlik qilgan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab bo‘lgan. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi deya aytiladi adabiyotlarda. Ijodining esa ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardozlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechgan holda, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o‘rgandi, ular

[1] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903

g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Jomiyni o‘ziga ustoz bo‘lgan. O‘zbek, fors mumtoz shoirlari an’analarining ijodiy yo‘nalishlarini davom ettirgan. O‘zbek adabiyotida demokratik yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog‘liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg‘or fikrli shoirlar o‘zbek adabieti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sug‘orilgan, shu sababli hajviy turdagi satiralari ijodining ko‘p qismini tashkil etadi. Hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan biridir. Muqimiy real muhabbatni, insoniylikni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalarni, sevinch va alamlarni, istak va armonlarni, kurashlarni tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan shoirdir. Yaxshi kunlar kelishiga ishongan va shunday deb yozib qoldirgan. „Kelur seni ham yo‘qlagudek bir zamon yaxshi”. Ushbu jumaladan faqatgina yorug‘ kunlar kelishiga va hozirgi davrda qiyinchiliklar ila yashayotganini yozib qoldirganligini tushunishimiz mumkin. Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she’rlarida ham kelajakka ishonch hamda farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan. Shu sababli Muqimiy optimist ruhdgi mutafakkirlardan hisoblanadi.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlarining nashrlari matnini shoirning dastxat bayozlari bilan qiyoslaganda aksariyat she’riy asarlar matni asliyatga muvofiq emasligi ma’lum bo‘ldi. Chunki sho‘ro davri mafkurasi talabidan kelib chiqib, shoirning diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlari tahrirga uchradi, qisqartirildi. Hajviy asarlar matnidagi kuchli ijtimoiy – tanqidiy bayt va bandlar ham tushirib qoldirildi. Natijada, tahrir qilingan asarlar o‘z mazmun – mohiyatiga zid talqin qilindi. Shuningdek, maqolada shoirning ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan forsiy tildagi bitta maktubi, hamda Amiriy g‘azaliga va o‘z g‘azaliga taxmis qilingan ikki muxammasi ilk marta e’lon qilinmoqda. Muqimiyning yangi topilgan asarlari shoir dunyoqarashini, ijtimoiy voqelikka munosabatini, adabiy-estetik olamini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega[2]. Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta’rifida», «Voqeai Viktor» va boshqa). Turli shaxar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli «Sayohatnoma» asarini yozdi. Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloklarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoir yaxshilikni ma’qullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergan, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan. Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar adabiyot namunasi hisoblanadi. 10 she’riy, 20 ga yaqin nasriy

[2] Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili

maktublari saqlangan. She’rlari qo‘lyozmalar, bayozlar, 20-asr boshlarida litografiyada nashr qilingan kitoblar, Toshkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan. Muqimiy ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov «Devoni Muqimiy» to‘plamini (T., 1907) nashr qilgan, so‘ng 1910,1912 yillarda «Devoni Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan asarlari to‘plami bosilgan. Keyingi davrlarda G‘. G‘ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G‘. Karimov, A. Hayitmetov va boshqa Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She’rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalaridan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romani va «Muqimiy» dramasini yaratgan. Muqimiyning aksariyat g‘azallari ashulaga aylangan 3 . Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ijodi turli tumanlikka asoslangan. Ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy tomonlari keng yoritilgan.

Muqimiy adabiyotning bir nechta janrlarida ijod qilgan. Uningayniqsa hajviy asarlari tahsinga sazovordir. Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning xajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Muqimiyning bu yo‘nalishda juda ko‘p asarlari mavjud. Hajviyoti asosan tanqidiy kulgiga asoslangan bo‘lib, o‘zi yashab turgan davrda jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan muammolarni she’riy yo‘sinda gavdalantira olgan. Muqimiy qashshoqlikda hayot kechirib, oddiy odamlar hayotini o‘rgangan. U o‘z asarlarida jamiyatda mavjuda bo‘lgan muammolarni tasvirlagan. Uning asarlari hayotiy bo‘lganligi uchun ham o‘z davrida ham, bugungi kunda ham ta’sir doirasi yuqori hisoblanadi. U hajviyotida asosan o‘zi yashab turgan davrda ijtmoiy-iqtisodiy hayotni tasvirlashga harakat qilgan. Hozirgi kunda ham uning asarlarini o‘rganish asosida, u yaxshab o‘tgan davrda aholining hayot tarziga baho berish mumkin. Muqimiy o‘z asarlarida o‘zining iqtisodiy qarashlarini ham keltirib o‘tgan. Ayniqsa u o‘z asarlarida shu davrdagi soliq tizimiga katta e’tibor qaratgan. U aholiga yuklanayotgan soliqlar baland ekanligi va buning natijasida aholi hayot tarzi og‘irlashayotganligini o‘z asarlarida tanqidiy ruhda bayon eta olgan. U o‘z asarlari orqali hukumat a’zolarini agar shunday soliqlar aholiga ko‘paytirilaversa, aholi qashshoqlik bilan yuzlashishi mumkinligi haqida ogohlantirgan. Bugungi kunda esa qashshoqlik butun dunyoda global iqtisodiy muammo sifatida qaralmoqda[4].

[3] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903

[4] Avaz Nuriddinov MUQIMIY ASARLARIDA AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TASVIRI

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy hayot yo‘li qiyinchiliklardan iborat bo‘lishiga qaramasdan har doim umid ila kelajakka tayangan holda, ijod qilgan va ,,Kelur bizni ham yo‘qlagudek bir zamon yaxshi” deya bitilgan satrlari buning asosiy sababi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903
2. Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili
3. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903
4. Avaz Nuriddinov MUQIMIY ASARLARIDA AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TASVIRI
5. G‘afur G‘lom ,,Boburiynoma”